

**TAXMIN MA'NOSINI IFODALOVCHI RAVISHLAR VA ULARNING
KOREYS TILSHUNOSLIGIDA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI****F. Muxiddinova,***O'zDJTU Koreys tili filologiyasi**kafedrası o'qituvchisi**G-mail:fatimamuxiddinova.95.30@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilidagi taxmin ma'nosini ifodalovchi ravishlarning lingvistik xususiyatlari, ularning koreys tilshunosligida o'rganilish darajasi hamda xorijiy til sifatida koreys tilini o'qitish jarayonidagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 최현배 (Choi Hyun Bae), 민현식 (Min Hyun Shik), 김민수 (Kim Min Su), 남기심 (Nam Gi Shim), 고영근 (Ko Yong Gin), 박신희 (Pak Shin He), 정예란 (Jeong Ye Ran) kabi olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi. Taxmin ravishlarining semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning koreys tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uchun murakkabligi yoritib berildi. Shuningdek, ravishlarning darajalar bo'yicha tasnifi va qo'llanilish chastotasi masalalari ham tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: ravish, taxmin ravishlari, koreys tilshunosligi, semantika, sintaksis, pragmatika, koreys tili ta'limi, modal ma'no, shart-taxmin.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности наречий, выражающих значение предположения в корейском языке, уровень их изучения в корейской лингвистике, а также их функциональная роль в процессе преподавания корейского языка как иностранного. В ходе исследования были рассмотрены научные взгляды таких учёных, как Чхве Хён Бэ (최현배), Мин Хён Шик (민현식), Ким Мин Су (김민수), Нам Ки Шим (남기심), Ко Ён Гын (고영근), Пак Шин Хи (박신희), Чон Е Ран (정예란) и других. Проанализированы семантические и синтаксические особенности наречий предположения, а также их трудности для изучающих корейский язык как иностранный. Кроме того, рассмотрены вопросы классификации наречий по уровням и частотности их употребления.

Ключевые слова: наречие, наречия предположения, корейская лингвистика, семантика, синтаксис, прагматика, преподавание корейского языка, модальное значение, условное предположение.

Abstract. This article analyzes the linguistic features of adverbs expressing the meaning of assumption in the Korean language, their level of study in Korean linguistics, and their functional significance in the process of teaching Korean as a foreign language. The research examines the scholarly views of linguists such as Choi Hyun Bae (최현배), Min Hyun Shik (민현식), Kim Min Su (김민수), Nam Gi Shim (남기심), Ko Yong Gin (고영근), Park Shin He (박신희), and Jeong Ye Ran (정예란), among others. The semantic and syntactic properties of assumptive adverbs are analyzed, highlighting the difficulties they present for learners of Korean as a foreign language. In addition, issues of classification by proficiency levels and frequency of usage are discussed.

Keywords: adverb, assumptive adverbs, Korean linguistics, semantics, syntax, pragmatics, Korean language education, modal meaning, conditional assumption.

Kirish. Tilshunoslikda ravish so'z turkumi grammatik hamda pragmatik jihatdan muhim birliklardan biri hisoblanadi. Ravishlar harakatning belgisi, holati, darajasi, miqdori yoki usulini ifodalash bilan bir qatorda, so'zlovchining voqelikka munosabatini ham namoyon etadi. Ayniqsa, taxmin ma'nosini ifodalovchi ravishlar muloqot jarayonida ehtimollik, noaniqlik, gumon, ikkilanish va ehtiyotkorlik kabi semantik-pragmatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Koreys tilida ravishlar gapning asosiy grammatik strukturasi uchun majburiy birlik bo'lsa-da, ularning ishtiroki nutqning tabiiyligi va ma'no aniqligini oshiradi. Ravishsiz tuzilgan gap grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq unda yashirin kommunikativ maqsad yoki emotsional noziklik yo'qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli koreys tilshunosligida ravish leksemalarini, ayniqsa taxmin ma'nosini anglatuvchi ravishlarni o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi koreys tilidagi taxmin ravishlarining ilmiy tasnifini tahlil qilish, ularning semantik va sintaktik xususiyatlarini yoritish hamda xorijlik o'rganuvchilar uchun yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Koreys tilshunosligida ravishlar XX asrning birinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o'rganila boshlandi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki fundamental ishlardan biri 1937-yilda Choi Hyun Bae tomonidan amalga oshirilgan. Olim ravishlarni gapning ma'nosini boyituvchi va kommunikativ vazifasini kuchaytiruvchi birlik sifatida talqin etgan.[1]

Choi Hyun Bae ravishlarni ikki katta guruhga ajratgan:

1. 가정 (**shart-taxmin**) – haqiqatligi noma'lum yoki vaqtinchalik qabul qilinadigan holatlarni ifodalaydi;

2. 추측 (**taxmin**) – mavjud vaziyat asosida ehtimoliy xulosa chiqarishni anglatadi.[2]

Shart-taxmin ravishlariga *만약, 만일, 설령, 설혹, 가사, 가령, 비록, 설사, 아무리* kabi birliklar kiritilgan bo'lsa, taxmin ravishlariga *아마, 글썽* kabi ravishlar mansub deb qaralgan.

Keyingi yillarda koreys tilshunoslari ushbu tasnifni yanada takomillashtirdilar. Xususan, Min Hyun Shik ravishlarni pragmatik vazifalariga ko'ra tasniflab, ularni aniqlik, shubha, tasdiqlash, iltijo, inkor va taxmin kabi guruhlarga bo'ldi.[3]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda koreys tilidagi taxmin ma'nosini ifodalovchi ravishlarni o'rganishda tavsifiy, analitik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida taxmin ravishlarining semantik va sintaktik xususiyatlari yoritildi. Analitik metod orqali ularning pragmatik vazifalari hamda nutq jarayonidagi funksional ahamiyati tahlil qilindi. Qiyosiy metod esa turli olimlar (Choi Hyun Bae, Min Hyun Shik va boshqalar) tasniflarini solishtirish hamda ularning ilmiy qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash uchun qo'llanildi. Bundan tashqari, lingvodidaktik yondashuv asosida taxmin ravishlarini xorijiy til sifatida koreys tilini o'qitish jarayonidagi o'zni ham ko'rib chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Taxmin ma'nosini ifodalovchi ravishlarning semantik xususiyatlari. Taxmin ravishlari koreys tilida noaniq vaziyat yoki ehtimoliy fikrni ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan, *아마* ravishi oddiy taxmin ma'nosini bildirib, ko'pincha "balki", "ehtimol" tarzida tarjima qilinadi:

아마 내일 비가 올 거예요.

Ehtimol, ertaga yomg'ir yog'adi.

Mazkur ravishda soʻzlovchi fikrning mutlaq emasligini bildiradi. Bunda ehtimollik darajasi mavjud boʻlsa-da, qatʼiy ishonch kuzatilmaydi.

후시/ ravishi esa ehtiyotkorlik, gumon yoki ikkilanish semantikasiga ega boʻlib, “mobodo”, “ehtimol” maʼnolarida qoʻllanadi:

후시 시간이 있으면 같이 가요.

Agar imkon boʻlsa (mobodo vaqtingiz boʻlsa), birga boramiz. [4]

Mazkur ravish pragmatik jihatdan muloyimlik va ehtiyotkorlikni kuchaytiradi.

어쩌면 ravishi esa koʻp maʼnolilik xususiyatiga ega boʻlib, “balki”, “ehtimol”, “boʻlishi mumkin” maʼnolarini ifodalashi mumkin. Shu sababli xorijiy oʻrganuvchilar uchun sintaktik va semantik jihatdan murakkab birlik sifatida baholanadi.

Taxmin ravishlarini oʻqitishdagi metodik muammolar. Taxmin maʼnosini anglatuvchi ravishlarni oʻqitishda asosiy muammo ularning koʻp qirrali pragmatik vazifasidir. Pak Shin He tadqiqotlarida koreys tili darsliklarida taxmin ravishlari asosan grammatika boʻlimi doirasida oʻrganilishi, biroq ularning pragmatik xususiyatlari yetarli darajada yoritilmasligi taʼkidlangan.[5]

Jeong Ye Ran tomonidan yapon oʻquvchilari ishtirokida oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, talabalar ravishlarning lugʻaviy maʼnosini yaxshi tushunsalar-da, ularni kontekstda qoʻllashda koʻplab xatolarga yoʻl qoʻyadilar.[6]

Bu esa ravishlarni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki kommunikativ vaziyatlar orqali oʻrgatish zarurligini koʻrsatadi

Olim tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, talabalar ravishlarni semantik jihatdan nisbatan yaxshi tushungan boʻlsalar-da, sintaktik qoʻllashda qiyinchilikka duch kelganlar. Masalan, *아마* ravishini semantik tushunish darajasi 93 foizni tashkil qilgan boʻlsa, sintaktik qoʻllanishi 46 foizni koʻrsatgan.

Bu natijalar ravishlarni oʻqitishda koʻproq amaliy mashqlar, matn tahlillari va pragmatik vaziyatlardan foydalanish zarurligini koʻrsatadi.

Xulosa. Koreys tilida taxmin maʼnosini ifodalovchi ravishlar muloqotning semantik va pragmatik jihatdan boyishini taʼminlovchi muhim birliklar hisoblanadi. Ushbu ravishlar gap mazmuniga ehtimollik, gumon, ehtiyotkorlik va noaniqlik kabi maʼnolarni yuklaydi.

Choi Hyun Bae, Min Hyun Shik, Kim Min Su va boshqa koreys tilshunoslarining ilmiy ishlari taxmin ravishlarini tasniflash hamda semantik jihatdan tahlil qilishda muhim metodologik asos yaratgan. Dursun Essiz tadqiqotlari esa ravishlarni xorijiy talabalar uchun bosqichma-bosqich oʻrgatish metodikasini taklif qilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotlar natijasida taxmin ravishlari semantik jihatdan osonroq oʻzlashtirilishi, biroq sintaktik va pragmatik jihatdan murakkab birlik ekanligi aniqlandi. Shu sababli koreys tilini oʻqitishda ravishlarni kontekst asosida, real kommunikativ vaziyatlar bilan bogʻliq holda oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 최현배, 우리말본, Seoul, 1937, 42-b.
2. 최현배, 우리말본, Seoul, 1937, 52-b.
3. 민현식, 국어문체론 연구, Seoul, 1999, 61-b.
4. 국립국어원, 표준국어대사전, Seoul, 2001, 218-b.
5. 박신희, 한국어 추측 표현 교육 연구, Seoul, 2011, 56-b.
6. 정예란, 일본인 학습자의 한국어 추측부사 사용 양상 연구, Seoul, 2014, 73-b.

